

**BUDDAVIYLIKDA DAVLAT MASALALARI*****J.Toshqulov***

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
Davlat va huquq institutining Nazariy-tarixiy,  
davlat-huquqiy va konstitusiyaviy-huquqiy fanlar  
bo‘limi boshlig‘i, Y.f.d., professor*

**Annotatsiya:** Maqolada jahon dinlaridan biri – buddaviylik dinining paydo bo‘lishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmun-mohiyati, manbalari, ularda din bilan davlat, dunyoviy hokimiyat va diniy hokimiyatning o‘zaro munosabati, davlatning paydo bo‘lish sabablari, davlatning paydo bo‘lish bosqichlari, davlatni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad, davlat boshlig‘ining vazifalari va vakolatlari, unga qo‘yiladigan talablar, davlat boshlig‘i, uning mulozimlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bayon etilgan, tahlil qilingan. Buddaviylikning davlat haqidagi ta’limotida ilg‘or g‘oyalarining nafaqat o‘z davri uchun hatto hozirgi davrda ham dolzarbliги asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Buddaviylik, qadimgi Hindiston, Dxarma, “Sansara”, “Digxanikaya”, “Dxammapanda”, “Ti pitaka”

Qadimgi Hindistondagi davlat va huquq haqidagi ta’limotlardan biri – buddaviylik ta’limotidir. Ushbu ta’limotga milloddan avvalgi 563-483 yillarda yashab ijod etgan, hozirgi Hindistonning shimoli-sharqida istiqomat qilgan Shakv qabilasi boshlig‘ining o‘g‘li Siddxartxa Gautama Shakyamuni Buddha asos solgan. Ilmiy va amaliy muloqotga “buddaviylik” – “buddizm” atamasi XIX asrda yevropalik olimlar tomonidan kiritilgan. Buddaviylik o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra diniy-falsafiy ta’limotdir. Ushbu ta’limotga e’tiqod qiluvchilar uni “Dxarma (qonun, ta’limot)” yoki “Buddhadxarama (Buddha ta’limoti)” deb e’tirof etadilar. Mazkur ta’limot zaminida jahon dinlaridan biri bo‘lgan buddaviylik dini vujudga kelgan.

Qadimgi Hindistonda buddaviylik ta’limoti asosan shaharlar aholisi orasida keng tarqalgan edi. Qishloqlarda mahalliy dinlar keng tarqalgan bo‘lib, ular bir tomonidan braxmanizm, ikkinchi tomonidan buddaviylik g‘oyalari ta’sirida bo‘lgan. Keyinchalik buddaviylik mamlakatning keng xalq ommasi etiqod qiluvchi dinga aylangan.

Buddaviylikka e’tiqod qiluvchilar safining kengayishi, uning ta’limotining oddiy xalq orasida tez va keng tarqalishida uning barcha insonlarning ma’naviy-axloqiy jihatidan tengligi, ushbu din jamoasining demokratik tamoyillar (tenglik, erkinlik, adolat, insonparvarlik va bosh.) asosida tashkil etilganligi, diniy marosimlarning oddiyligi va ko‘pchilikka tushunarli va qiyinchiliklar tug‘dirmasligi, jamoaga a’zo

bo‘lishning ixtiyoriyligi, assosiy g‘oyalari va qoidalarning aniq, ravon va oddiy xalqqa tushunarli tilda ekanligi kabilar muhim rol o‘ynagan.

Buddaviylik unga e’tiqod qiluvchilarini o‘z turmush tarzini faol o‘zgartirishga da’vat etmagan va voqelik bilan kelishish hamda hisoblashishni ma’qullagan, boshqa dinlarga salbiy munosabatda bo‘lmagan, ijtimoiy-siyosiy hayotda jiddiy o‘zgarishlar qilish masalasini kun tartibiga qo‘ymagan, boshqa dingga e’tiqod qiluvchilarini o‘z diniga majburlab kritishdan yiroq bo‘lgan. Shuning uchun davlat buddaviylikni xavfsizlikka tahdid soluvchi kuch deb hisoblamagan, uning rahnamolarini ta’qib qilmagan. Bu buddaviylar jamoalarini butun Hindiston hududida tashkil etishga imkon bergen. Buddaviylikning butun Hindiston bo‘ylab tarqalishi o‘sha davrdagi hind jamiyatining hukmron doiralari manfaatiga mos kelardi. Mil. av. V asrdan boshlab hind jamiyati hukmron doiralari tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshlandi. Podshox Ajatashatu qo‘llab-quvvatlashi natijasi o‘laroq buddaviylarning birinchi sobori (kurultoyi) chaqirilgan, unda buddaviylik jamoasining birinchi nizomi ishlab chiqilgan, Buddha shogirdlari xotirasida saqlanib qolingan uning o‘gitlarining yozma matni tuzilgan. Buddaviylik rivoyatlariga ko‘ra, mil. av. IV asrning birinchi yarmida buddaviylar jamoasining ikkinchi sobori bo‘lib o‘tgan. Maur’iyalar sulolasiga hukmronligi davrida buddaviylik rohiblari jamoasi jiddiy iqtisodiy va mafkuraviy salohiyatga ega tashkilot sifatida o‘zini namoyon eta boshlagan<sup>1</sup>.

Qadimgi Hindistonda Ashoka hukmronligi davri (mil.av. III)ga kelib buddaviylik davlatning rasmiy dini maqomini oldi. Ashoka birinchilardan bo‘lib ushbu dinni qabul qildi va uning butun Hindiston hududida tarqalishiga imkoniyat yaratdi. Mil. av. 253 yilda Pataliputrade Ashoka buddaviylikning soborini chaqirdi (ayrim rivoyatlarga ko‘ra mil. av. V va IV asrlardan chaqirilgan birinchi va ikkinchi soborlar haqidagi rivoyatlar unchalik ishonchli emas). Unda buddaviylik yaxlit ta’limotga asoslangan va tashkil etilgan din sifatida rasmiy maqomga ega bo‘ldi, buddaviylik jamoasi davlat uchun xizmat qiladigan kuchli vosita tusini oldi, buddaviylikning asos qonun-qoidalari – prinsiplari tasdiqlandi. Ashoka hukmronligi davrida ko‘plab buddaviylik ibodatxonalari qurilganligi haqida rivoyatlar bor. Bizgacha qoyatoshlar va ustunlarga o‘yib yozilgan Ashokaning buddaviylik ta’limoti ruhini o‘zida mujassamlashtirgan ko‘rsatmalari-o‘gitlari yetib kelgan. Ularda fuqarolarning hokimiyatga, podshoh mulozimlariga, ota-onalariga va o‘zidan yoshi kattalarga bo‘ysunishlari shartligi, ko‘rsatmalarning so‘zsiz bajarilishini dxarma (qonun) ishlari bo‘yicha podshohning maslahatchisi-dxarmamantir rahbarligidagi mulozimlar nazorat qilishi, qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash haqida so‘z boradi.

Ashoka hukmronligi davrida buddaviylikni qo‘shni davlatlar hududida yoyish uchun missionerlikni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga alohida e’tibor

<sup>1</sup> Каранг: Всемирная история в 22-х томах. Т.5. Становление государств Азии. Мн.: Харвест, 2005. – С.369.

qaratilagan. Buning natijasida buddaviylik ta'lomit Seylon, Birma, Siama va Indoneziya kabi davlatlar aholisi orasida tarqaldi.

Buddaviylikka e'tiqod qiluvchilarning soni hozirgi kunda taxminan 500 mln. kishini tashkil qilib ulardan 244.1 mln. Xitoyda, 64.4 mln. Taylandda, 45.8 mln. Yaponiyada, 38.4 mln. Birmada, 14.4 mln. Shri Lankada, 14.3 mln. Vyetnamda, 13.6 mln. Kampuchiyada, 11 mln. Shimoliy Koreyada, 9.2 mln. Hindistonda, 5 mln. Malayziyada istiqomat qiladi.<sup>2</sup>

Qadimgi Hindistonda buddaviylik dinining paydo bo'lishi va uning davlatlar hududida tarqalishida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muhit muhim rol o'ynagan: yozuvning mavjudligi, san'atning xilma-xil turlarining shakllanganligi, diniy e'tiqodlar tizimi ta'lomitlarining keng tarqalganligi (braxmanizm, vedizm) va ularning asosiy tushunchalarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqeining yuqoriligi, vedizm ta'lomitining karma, sansara, dxarma (dxamma) kabi tushunchalarning ijtimoiy ongga singib ketganligi, vedizmning ramzları bo'lgan ayrim o'simlik va hayvonlarga hurmat-ehtirom bajo keltirish, ko'pchilik oilaviy-maishiy an'analarning barqarorligi, buddaviylik g'oyalarini targ'ib qilishning hukmon doiralari tomondan qo'llab-quvvatlanishi va boshqalar. Shuningdek, buddaviylik paydo bo'lgan davrga kelib mamlakat aholisining ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar keskin tus ola boshlagan edi.

Shuni qayd etmoq kerakki, buddaparastlar o'rtasidagi aqidaviy qaramaqarshiliklar salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida qadimgi davrda to'rt marotaba umumiylajlis chaqirilgan: mil.av. 477 yilda Radjachrixadada, mil.av.367 yilda Vayshagada, mil.av. III asrda Patalaputrada, mil. II asrida Kashmurda.<sup>3</sup> Shunga qaramasdan yaxlit bir diniy-falsafiy ta'lomit sifatida paydo bo'lgan buddaviylikning ilk davrlaridayoq 18 ta maktabga bo'linish yuz bergen. Keyinchalik mazkur maktablarning zaminida buddaviylikda ikkita oqim-yo'nalish shakllangan: xinayana (kichik aravacha yoki najot topishning tor yo'li) va maxayana (katta aravacha yoki najot topishning katta yo'li).

Shuni ham alohida takidlash joizki, boshqa jahon dinlaridan farqli holda diniy muqaddas kitoblar buddaviylikning manbai sifatida xizmat qilmaydi. Budda o'z ta'lomitini og'zaki shaklda bayon etgan, o'zining g'oyalarini yozib olishga ham ruhsat bermagan. Uning ta'lomi Buddha vafotidan ancha keyin uning shogirdlari tomonidan kitob holatiga keltirilgan. Buddaviylikning asosiy manbai hisoblangan milloddan avvalgi I asrda Seylonda (Shri-Lankada) yozilgan "Tipitaka" – "Tripitaka" (Uchta Savat)dir.

<sup>2</sup> Qarang: Hasanbayev O'. Diniy-ma'rifiy va ijtimoiy ma'naviy soha targ'ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarning izohli lug'ati.T.: "Shamsuddinxon Boboxonov" nashriyot-matbuot ijodiy uyi. 2020.-B.93-95.

<sup>3</sup> Qarang: Po'latova D., Qodirov M., Ahmyedova M. va bosh. SHarq falsafasi. O'quv qo'llanma. T.:TDSHN, 2011. – B.232.

“Tipitaka” uch qismidan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi “Vinaya-pitaka” (“Axloqiy meyorlar kitobi”)da buddaviylar jamoasiga a’zo bo‘lish tartibi, rohiblarning xulq-atvor qoidalari, diniy ko‘rsatmalarga rioya qilish bilan bog‘liq talablar va ularga rioya qilmaganlik uchun qo‘llaniladigan jazo choralari; ikkinchi qismi – “Sutta-pitaka” (“Duolar kitobi”)da buddaviylar jamoasining tuzilishi va budda shogirdlariga oid ma’lumotlar, uning shogirdi Ananda tomonidan ustozining ma’ruza va hikmatli so‘zлari sharhlari, uchinchi qismi – “Abhidharma-pitaka” (“Diniy-falsafiy masalalar kitobi”)da asosiy diniy qoidalari va buddaviylik amaliyotining mazmun-mohiyati o‘z aksini topgan. Keyinchalik “Tipitaka” matniga qator o‘zgartirish qo‘shimchalar kiritilgan, matn tibet, xitoy, yapon tillariga tarjima qilingan.

Keyinchalik buddaviylik ta’limotiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan, ushbu ta’limot tarqalgan mintaqalarning mahalliy shart-sharoitlaridan kelib chiqib mazmunan boyitilgan va rivojlantirilgan. Ularnang barchasi milodning I-III asrlarida va undan keyingi davrlarda buddaviylikka oid asarlarda o‘z aksini topgan. Xususan, “Buddaning 84 mingta nasihatni 108 jilddan iborat “Kangyur”da, uning talqin va tafsiri 225 jilddan iborat “Tengyur”da aks etgan. Shuningdek, Buddaning hayotiga bag‘shlangan va milodning II asrida yozilgan “Maxavotsu” milodning II-III asrlarida yozilgan “Lalitavistara” (“Buddaning hayoti”), buddaviy faylasuf Ashvaghosha tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan “Buddxacharita”, milodning I asrida yozilgan “Abinixishkramansutra” va “Nidanakatxa”, “Dxammapanda” (“Dxarma yo‘li”, “Buddaning fikr-g‘oyalari”) kabi asrlar buddaviylikning muhim manbalaridan hisoblanadi”.<sup>4</sup>

Buddaviylik din va falsafiy ta’limot sifatida Buddaning nufuzini e’tirof etish va uning hayot yo‘liga namuna sifatida qarab unga e’tiqod qiluvchilarni buddaning hayot yo‘lidan foydalanishga da’vat etishga asoslanadi. Boshqa dinlardan farqli ularoq holda hech kim tug‘ilishdan buddaviy bo‘lib dunyoga kelmaydi. Har bir inson buddaviy bo‘lishga tanlov orqali erishadi. Bu tanlov har kimning xohishi asosida amalga oshishi lozim. Hech kimni buddaviy bo‘lishga majburlash mumkin emas.

Buddaviylik Qadimgi Sharqda keng tarqalgan xudo oliv martabali shahs, dunyoning axloqiy hukmdori, qonunning birinchi manbayi kabi g‘oyalarni inkor etadi.<sup>5</sup>

Buddaviylik ta’limoti bo‘yicha, inson taqdiri uning qo‘lida. Inson hozirgi kuni va kelajagini o‘zi yaratadi. Inson o‘ziga xos xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan jonzot bo‘lib, tug‘uladi, o‘zini turli balo-qazolardan asraydi, qutqaradi, hatto, o‘zini-o‘zi halok qiladi. Insonning hozirgi hayoti va kelajagi haqidagi buddaviylik ta’limotining asos va tayanch g‘oyalarni “to‘rt oliv haqiqat” haqidagi g‘oyalarni tashkil qiladi:

<sup>4</sup> Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Масъул мухаррир. И.Усмонов. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2013.-Б.148.

<sup>5</sup> Каранг: История политических и правовых ученый. Учебник. Пед.ред. В.С.Нерсесянка. – М.: Норма 2004. – С27.

– birinchisi – “Azob-uqubat haqidagi haqiqat”ga binoan, har bir tirik jonning azob-uqubatga uchrashi muqarrar. Har qanday dunyoviy hayot qynoq, azob-uqubatdir. Jumladan, tug‘ilish-qynoq, kasallik-azob, sevmagan kishi bilan yashash-azob, suyukli odamlardan ajralib qolish-g‘am, astoydil xohlagan narsangga erisha olmaslik-azob, orzu-havasga yeta olmaslik-azob-uqubat;

– ikkinchisi – “Azob-uqubat sabablari haqidagi haqiqat”ga ko‘ra inson moddiyenne’matlar yoki ma’naviy qadriyatlarni haqiqiy va doimiy, deb hisoblagani uchun ularga ega bo‘lishga intiladi, bu oqibat natijada, yaxshi yoki yomon niylardan tashkil topgan hayot daryosi orzu va intilishlar sababi kelajak hayot uchun “karma” hozirlaydi, o‘z nafsining xohish-istiklariga asir bo‘lgan inson azob-uqubatlar girdobiga tushib qoladi. Shunday qilib insonning qayta tug‘ilishi va yangidan-yangi qynoqlarga uchrashi davom etaveradi;

– uchinchisi – “Azob-uqubatlardan xalos bo‘lish haqidagi haqiqat” bo‘yicha, har qanday o‘y-niyat, orzu-havas va intilishlardan butunlay voz kechishi “nirvana” holatiga olib boradi, natijada inson tug‘ilishdan to‘xtaydi. “Nirvana” holatidagi inson barcha g‘am-tashvishlardan xalos bo‘lib, uning xohish-istagi, his-tuyg‘ulari, ehtiroslari o‘z aksini yo‘qotadi;

– to‘rtinchisi – “Azob-uqubatlardan qutulishning najod yo‘llari haqidagi haqiqat”ga ko‘ra, Budda tomonidan taklif etilgan “xaloskorlikning ajoyib sakkiz yo‘li”ga amal qilish orqali azob-uqubatlardan xalos bo‘lishi mumkin. Bular quyidagilar: to‘g‘ri maslik(dunyoqarash) – “To‘rt oliy haqiqat”ni bilish, idrok etish va unga ishonish; to‘g‘ri maqsad – tamagirlilik, nafs, xurs, badxulklik, bag‘ritoshlikdan xoli bo‘lish, dunyoviy huzur-halovatdan voz kechish, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazishdan o‘zini saqlashga intilish; to‘g‘ri so‘z-yolg‘on tuhmat, haqorat, manmanlikdan, befoyda gaplardan saqlanish; to‘g‘ri sa‘i-harakat – nohaq qon to‘kish, o‘g‘irlik va o‘z nikohida bo‘lmagan ayol bilan jinsiy aloqaga kirishishdan saqlanish, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmkaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik, o‘zining yomon tuyg‘ularini jilovlash, ezgu-tuyg‘ular va yaxshi harakatlarni rivojlantirish; to‘g‘ri turmush tarziga rioya qilish – noma‘qul hayot kechirishdan saqlanish, g‘ayriixtiyoriy xatti-harakatlarsiz, o‘zgalarga ziyon yetkazmaslik; to‘g‘ri intilish erishilgan muvoffaqiyatlarni rivojlantirish, xaloskorlik yo‘lida yig‘ilgan tajribani asrash uchun tinmay harakat qilish; to‘g‘ri fikrlash-tanaga, hissiyotga, ong va ruhiy holatlarga diqqat-e’tibor qaratish, ularning mohiyatini aniq belgilash, ehtiros va iztiroblarga chek qo‘yish; to‘g‘ri mulohaza yuritish-hissiy holatlarni tark etish, ko‘tarinki, yuksak bilim va mantiqiy mafkuraga ega bo‘lgan birinchi “bilish bosqichiga” qadam qo‘yish, kundalik hayot tashvishlarini xalos bo‘lib, xayrat, zavq-shavq va quvonch olamida kezish.<sup>6</sup>

<sup>6</sup> Қаранг: Диншунослик асослари. Ўкув қўлланма. Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-манбаси бирлашмаси, 2013.-Б.148-152.

Boshqa dinlarda bo‘lgani kabi “Buddaviylik ta’limotida ham esxotologik (o‘lim holati – J.T.) qarashlar mavjud. Lekin, esxotologiyaning asosiy masalalari o‘lim va u bilan bog‘liq holat, qayta tirilish, jannat va do‘zax haqidagi ta’limotlar o‘ziga xos boshqa ko‘rinishda talqin etilgan”.<sup>7</sup> Buddaviylik ta’limoti renikarnatsiya (“Tanasuh” bir olamdan ikkinchisiga o‘tish J.T.) g‘oyasiga asoslanadi. Lekin, unda ham o‘limdan so‘ng hayot borligi haqidagi qarashlar mavjud. Insoniyatning ulug‘ ota-bobolari Pitriloka sayyorasida, yarimxudolar, donishmand va mistiklar Satyaloka, Tapolaka va Djanalokada joylashadilar. Bu yerlarda hayot cheksiz rohatdan iborat. Bu sayyoralar ni ular jannatga taqqoslaidilar. Yaxshi insonlar jannatdek shunday sayyoralariga, gunohkorlar esa do‘zaxga tushadilar. Faqat, na azob-uqubatlar va rohat-farog‘atlar abadiy emas, balki o‘tkinchidir. Har kim o‘z ulushi (yaxshilar ajr-mukofot, yomonlar azob-uqubat)ni olgandan so‘ng ruhi yana Yerga qaytadi. Faqatgina nirvanaga yetishgan insongina abadiy hayotga erishadi”.<sup>8</sup>

Buddaviylik ta’limotida uch bosqichli olam, ularning bir-biridan farqi va ularda insonning o‘rni haqidagi masalaga alohida urg‘u berilgan. Olamning birinchi bosqichida yuqori darajali tinchlik va osoyishtalik hukm suradi “nirvana” (so‘lish, o‘chish), unda inson barcha g‘am-tashvishlardan xalos bo‘lib, hech bir xohish-istiklarga berilmaydi, unda ruh – “Sansara” (kezish, ko‘chib yurish, o‘zgarish) kishanlaridan qutilib oliy maqomga ega bo‘ladi. Ikkinci bosqich – “rupaloka” (jannat)da “boddhisattvalar” (mohiyati bilim bo‘lgan inson) istiqomat qiladi, unda jannatni yaratuvchisi bo‘lmish Buddaning biri Amitabha hukmronlik qiladi, savob ishlarni qilgan, barcha gunohlardan ozod bo‘lgan, “nirvana”ga ko‘tarilish huquqini qo‘lga kiritgan insonlar o‘rin oladi. Eng quyisi – uchinchi bosqich – “kamaloka” (do‘zax)da odamlar va hayvonlar yashaydi, ruh qafasga tushadi. Ruhni qafasdan qutqarish uchun insonlar savobli ishlarni bajarishlari lozim bo‘ladi.<sup>9</sup>

Professor N.Najmiddinovning yozishicha, “ma’lumki, buddizm qator ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari rivojlanishiga to‘siq bo‘lgan braxmanizmning tabaqa tizimiga qarshi ruhiyati bilan o‘z davrining ilg‘or insonparvar ta’limoti sifatida xulosalangan. Chunonchi, “Braxmanizm o‘z doktorial mohiyati bilan faqat milliy qobig‘ ichidagi mafkura rolini o‘ynagan, buddizm esa, aksincha, unga kimki istasa murojaat qilishi mumkin bo‘lgan”. Lekin shuningdek o‘zaro raqobatdagi ikki falsafaning birini ikkinchisiga nisbatan jamiyat taraqqiyotidagi afzalliliklari to‘g‘risida gapirganda, buddizmni brahmanizmga qiyosan demokratik g‘oyalari uchun butunlay yangi e’tiqod hisoblash ham noto‘g‘ri. ZOTAN Budda ta’limoti, maqsadga eltuvchi ma’ullaq yo‘li dxarma va a‘mol mohiyatini belgilab beruvchi karma kabi braxmanizmdagi diniy-dunyoviy qonuniyatlarga muqobil o‘z falsafiy asoslariga ega

<sup>7</sup> Исокжонов Р.Р. Қиёсий диншунослик. Ўқув кўлланма. Т.: “Complex Print”, 2020.-Б.167.

<sup>8</sup> Ўша жойда

<sup>9</sup> Каранг: Диншунослик. Ўқув кўлланма. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2013.-Б.148-149.

emasdi. Yangi dinning o‘tmish e’tiqodiga nisbatan asosiy xizmati, u hind jamiyatidagi muttasiblik, aqidaparastik va ular bilan bog‘liq an’anaviy tabaqa tamoyillarni inkor etib, insonni uzliksiz iztiroblardan – sansara qonuniyatidan qutilishga chorlab, tabaqadorlar safini irqiy, milliy va diniy tafovutlar tazyiqidan tozaladi”.<sup>10</sup> Shuningdek, professorning alohida qayd etishicha, buddaviylik “o‘z nazariy hamda amaliy targ‘iboti bilan kechagi quyidan tepaga qarab tabaqalangan kishilarni bir jamiyatning teng huquqli fuqarolariga aylantirgan edi”.<sup>11</sup>

Buddaviylikning ushbu xizmati uning insonlar tug‘ilishda tengligi, braxmanlar ham oddiy inson bo‘lib boshqalardan ustivor emasligi, hind jamiyatidagi ayrim tabaqalar, xususan, braxmanlar va kshatriylarga qator imtiyozlar berish noto‘g‘ri ekanligi haqidagi g‘oyalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Buddaviylik Qadimgi Hindistonda hukmron din mavqeida bo‘lgan braxmanlikka muxolif diniy-falsafiy ta’limot sifatida mafkuraviy kurash maydoniga kirib keldi. Keyinchalik buddaviylik ilk jahon dinlaridan biri sifatida yer yuzining turli mintaqalariga tarqaldi. Kushon podsholigida, shu jumladan hozirgi O‘zbekiston hududining katta qismida qadimgi davrda buddaviylik davlat dini maqomida bo‘lib unga e’tiqod qiluvchilarning diniy marosimlar-ibodat, dunyoga kelish va balog‘atga yetish kunini nishonlash, nikoh, yangi uyga ko‘chib o‘tish, ajdodlarni xotirlash va dafnini amalga oshirish, diniy jamoani, mamlakatni boshqarish, davlat boshlig‘i va unga bo‘ysunuvchilarning vazifalari, vakolatlari va majburiyatlari, odilsudlovni tashkil qilish va amalga oshirish, mamlakatda tinchlik, osoyishtalik, diniy totuvlik va bag‘ri kenglikka erishish, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, buddaviylar o‘rtasida yakdillik va birlikni ta’minlash, moddiy jihatdan qiynalib qolganlarga xayrsadaqa qilish, kambag‘allikni, urushning va azob-uqubatlarning oldini olish kabilar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar mazkur dinning manbalarida belgilab berilgan edi.

Qadimgi Sharqning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida davlatning paydo bo‘lishi haqida diniy nazariya hukmronlik qilgan bir sharoitda buddaviylik davlatning paydo bo‘lishi sabablarini yerdan, inson tabiatidan va insonlararo munosabatlardan izlaydi. Davlatning paydo bo‘lishi Xudo va boshqa g‘ayritabiy kuchlar bilan bog‘lab tushuntirgan, davlat hokimiyatining manbayi Xudodir, davlat boshlig‘i xudoning yerdagi vakilidir, u Xudoning xohish-istagi va ko‘rsatmalaridan kelib chiqib davlatni boshqarishi shartligi, mavjud tuzum abadiy va o‘zgarmasligi kabi g‘oyalarga qarshi buddaviylik davlat insonlar tomonidan o‘zaro kelishuvga binoan tashkil etilganligi, davlat boshlig‘i ilohiy shaxs emas, u ham boshqalar kabi oddiy inson ekanligi, uning

<sup>10</sup> Низомиддинов Н. Жанубий ва Жануби-Шарқий Осиё Т.: “Фан ва технологиялар Марказининг босмахонаси” 2010.-Б.166-167.

<sup>11</sup> Низомиддинов Н. Жанубий ва Жануби-Шарқий Осиё Т.: “Фан ва технологиялар Марказининг босмахонаси” 2010.-Б.187.

asosiy vazifasi mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hamda fuqarolar faravonligini ta'minlashdan iboratligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi.

Buddaviylik manbalari va ularning tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga binoan davlatning paydo bo'lishi insonlarning ehtiyojidan kelib chiqib bevosita ularning faol ishtirokida uzoq davr davomida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan murakkab va keng qamrovli jarayon.<sup>12</sup> Ularda qayd etishicha, bir necha olam mavjud. Ularning har biri Yer, Quyosh va Oydan iborat kichik olamlardir. Kichik olamlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatishi natijasi o'laroq rivojlanishi, bu jarayon tanazzuldan yuksalishga, yuksalishdan tanazzulga qadar ma'lum bir qonuniyatlar doirasida amalga oshishi, mazkur jarayon davomida mavjud tirik mavjudodlarning olovda yonishi, so'ngra qattiq, suyuq, gazsimon olovdan avval ko'rinas, keyin shaffof va moddiy hayot (borliq) shakllarining paydo bo'lishi, ushbu jarayonda hayotning birinchi shakli sifatida insonning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda orzu-istiklar, xohishlar yuzaga chiqqanligi, bu insonlararo munosobatlarning shakllanishiga zamin yaratgan. Ma'lum bir vaqtlardan keyin insonlar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaganlar, keyinchalik insonlar ayol va erkaklarga bo'lingan, ular kichik guruhlarga birlashib oddiy hayot kechirishgan, har kim o'z tabiiy ehtiyojlarining qondirilishidan mamnun bo'lgan. Lekin ayrim erkak va ayollar o'zlarining jinsiy ehtiyojlarini qondirishga berilib ketishi natijasida ayrim kishilarning xirs, lazzat olishga berilishi kuchayadi, bu ayrim kishilarda ehtiros va shahvatga berilishning rivojlanishiga, axloqsizlarning ko'payishiga olib keladi. Kishilar bu illatdan qutulish uchun axloqsizlarni jamoadan haydaydilar. Ular hayotini saqlab qolish, o'zlarining moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'zları uchun alohida kulbalar qurishni boshlaydilar, umumiyligini mulkdan (tabiiy noz-ne'matlardan) o'z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish choralarini ko'radilar. Keyinchalik bu kishilar umumiy mulkdan boshqalardan ko'proq o'zlashtirishga harakat qiladilar. Natijada ochko'z kishilar guruhi shakllanadi. Jamiyatda nafs balosiga uchragan, axloqsiz va ochko'z kishilarning ko'payishi kishilarning asosiy oziq-ovqat manbai bo'lgan sholi hosilining pasayib ketishiga sabab bo'ladi, guruch sifatining yomonlashishiga olib keladi. So'ngra kishilar o'rtasida sholi ekiladigan yer maydonlarini bo'lib olish uchun harakat boshlandi. Sholi maydonlarning ma'lum bir qismini egallab olganlar o'zları egallab olgan yerkarni xususiy mulk sifatida e'tirof etadilar. Kishilar o'z yer maydonlarini o'rab olish ishlarini boshlab yuboradilar. Bu o'g'rilarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. O'g'irliklarning avj olib ketishining oldini olish uchun, o'g'rilarni jazolash choralarini ko'riladi. Bu yolg'on ko'rsatma berish va ikkiyuzlamachilikning kelib chiqishiga turtki bo'ladi. O'zgalar mulkini o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqning kuchayishi kishilar o'rtasida nizolar, kelishmovchiliklar, urush-janjallarni keltirib chiqaradi, bu jamiyatda

<sup>12</sup> Бу ҳакида батафсил қаранг: Корнев В.И. Буддизм и общество в странах южной и юго-восточной Азии. – М.: "Наука". 1987. – С.123-129.

tartibsizlik boshlanishiga sabab bo‘ladi. Bu kishilarni jamiyatda tartib o‘rnatish choralarini ko‘rish borasida bosh qotirishga majbur qiladi. Kishilar yig‘ilishib jamiyatda tartib o‘rnatish uchun o‘z oralaridan bu ishga eng loyiq va adolatli kishini hukmdor etib saylash kerak degan xulosaga kelishadi. Hukmdorga o‘z fuqorolarini turli tajovuzlardan himoya qilish, noloyiq-tartibbuzarlarni sud javobgarligiga tortish, jamiyatda tinchlik va tartib-intizomni saqlash kabi vazifalar yuklanadi. O‘z navbatida fuqorolarga hukmdorni guruch va boshqa uning ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan narsalar bilan ta’minlash majburiyati yuklatiladi.<sup>13</sup>

Dxamma ta’limoti to‘g‘risida tegishli bilimlarga ega bo‘lmagan hukmdor o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydi, fuqarolarning faravon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yarataolmaydi. Natijada fuqarolarning qashshoqlashuvi boshlanadi, bu ularning o‘g‘irlik qilishi va boshqa g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishiga olib keladi. Bunday holatga barham berish uchun hukmdor o‘g‘rilarni qamash uchun turmalar qurishga va jazolashga kirishadi. Ko‘rilgan ushbu choralar ashaddiy jinoyatchilar tomonidan guvohlarni yo‘q qilish uchun ularni o‘ldirishiga turtki bo‘ladi. O‘g‘ilar va qotillarni javobgarlikka tortish uchun sud organlari tashkil etiladi. Jazodan qo‘rqan jinoyatchilar o‘zlarini oqlash maqsadida yolg‘on ko‘rsatmalar berishni boshladilar. Bu o‘z navbatida tuhmat va haqorat qilish kabi ijtimoiy illatlarni yuzaga chiqardi. Bu illatlar jamiyat a’zolarining axloq va jismoniy mezonlar asosida guruhlarga bo‘linishiga sabab bo‘ldi. Chiroyli va go‘zal kishilar xunuklarga aylanadi, ayollar ulardan o‘zlarini olib qocha boshlaydilar, go‘zal va chiroyli xotinlari bor kishilarga xasad qilish boshlanadi, fohishabozlik va jinsiy hiyla-nayranglar odat tusini oladi. Buning natijasi o‘laroq haqoratomuz nizolar, kelishmovchiliklar, safsatabozliklar boshlandi, jamiyatning axloqiy asoslariga putur yetdi. Axloqsiz xatti-harakatlar, hiyla-nayranglarga to‘lib-toshib yotgan tasavvurlar va xohish-istiklar avjiga chiqib, farzandlik hislari va diniy his-tuyg‘ularni yo‘qqa chiqardi, axloq va odob qoidalari esdan chiqarildi, ularga rioya qiluvchilar vaqt o‘tishi bilan kamayib bordi, kishilar o‘rtasida urushlar boshlandi, jamiyat barbod bo‘ldi, yovvoyilik va yovuzlik holatiga tushib qolgan insonlar g‘orlardan panoh topdilar. Shunda ayrim aqli-hushi joyida bo‘lganlar boshqalarni ehtiyyotkor bo‘lishga va aql bilan ish qilishga chaqirdilar. Ular – “diniy hayot kechiruvchilar” mast qiluvchi ichimliklardan va aqlga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlardan voz kechib o‘zini-o‘zi takomillashtirish yo‘lida mo‘tadil, kamtarona va tinch hayot kechira boshladilar. Bu jamiyatda tartib-intizomni tiklash va qaror toptirishga imkon berdi. Ushbu holat yangi hukmdor saylashga ehtiyoj tug‘ilgungacha davom etdi.<sup>14</sup>

Yuqorida bayon qilinganlar buddaviylikning dastlabki manbalari uchun xos bo‘lgan fikr mulohazalar bo‘lib, keyinchalik ular umumlashtirilib bir muncha tartibga

<sup>13</sup> Каранг: Ўша асар, – С. 124-125.

<sup>14</sup> Каранг: Ўша асар. – С. 125

keltirilgan fikr-mulohazalar holatida bayon etilgan va ularga sharhlar berilgan. Jumladan, buddaviylik manbalaridan birida bayon qilingan fikr-mulohazalarga binoan: kambag‘al hech qachon hech bir narsaga qodir emasligi sababli, qashshoqlik odatiy holga aylanadi, qashshoqlik o‘g‘irlikni, o‘g‘irlik zo‘ravonlikni keltirib chiqaradi, zo‘ravonlik tinch hayotni buzadi, avj olib ketgan qotillik hayotning jozibadorligiga chek qo‘yadi; aynan kambag‘alni hech narsaga qodir emasligi qashshoqlikning, qashshoqlik o‘g‘irlikning, o‘g‘irlik zo‘ravonlikning, zo‘ravonlik qotillikning, qotillik yolg‘onning, yolg‘on yomon so‘zning, yomon so‘z zinoning, zino haqoratomuz va noloyiq gaplarning, noloyiq gaplar ochko‘zlik va yomon niyatning, ochko‘zlik va yomon niyat yolg‘on g‘oyalarning, yolg‘on g‘oyalar qarindosh-urug‘lar qonlarining aralashib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu holat kishilar o‘rtasidan qon-qarindoshlik va diniy e’tiqoddorlik his-tuyg‘ulari va urug‘ oqsoqollariga hurmat va ehtiromning barham topishigacha davom etadi. Buning natijasida insonlarning umr ko‘rishi o‘n yilgacha qisqaradi, qizlar besh yoshga to‘lishi bilan balog‘atga yetgan hisoblanadi, kishilar kuydirilgan yog‘, sariyog‘, o‘simplik yog‘i, shakar, tuz nima ekanligini bilmaydigan darajagacha yetadi. Kudrus donalari nozik taomga aylanadi, kishilar o‘nta axloqiy fazilatlarni esdan chiqaradilar, ularning o‘rnini o‘nta axloqsizlik illatlari egallaydi, ushbu illatlarga barham berish choralar ko‘rilmadi. Insonlar o‘rtasida axloqsizlik avjiga chiqdi, hayvonlar o‘rtasida bo‘lgani kabi jinsiy aloqa qilish odatiy tus oldi. Buning natijasida kishilar, shu jumladan qarindosh-urug‘lar o‘rtasida bir-birini ko‘ra olmaslik, dushmanlik munosabatlarining shakllanishi faollashdi, qotillik va zo‘ravonlik xatti-harakatlarini sodir etish ko‘paygandan-ko‘paydi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning yovvoyi hayvonlar o‘rtasidagi munosabatlardan farqi qolmadi, odam o‘ldirish, talonchilik, bosqinchilik insonlar o‘rtasida oddiy hol darajasiga yetib bordi. Bu holat aqli-hushi joyida bo‘lgan odamlarni o‘zлari, oilasi va farzandlarini kelajagi to‘g‘risida o‘ylashga, bunday holatdan chiqish yo‘llarini izlashga majbur qildi. Ular qotillik, zo‘ravonlik, bosqinchilik, talonchilik, axloqsizlik kabi illatlarga barham berish choralarini ko‘rishni boshladilar. Ular insonlar o‘rtasida yuksak axloqiy fazilatlarga asoslangan munosabatlarni o‘rnatishda, o‘zaro hurmat, mexri-muhabbat rishtalarining keng tus olishi va mazmunan boyishiga o‘z hissasini qo‘shishda boshqalarga o‘rnak ko‘rsatdi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida insonlar o‘rtasidagi aloqalar ijobjiy tomonga o‘zgardi, do‘stlik, o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat rishtalari qaror topdi, salbiy illatlar kamaydi. Buning oqibatida kishilar farovon hayot kechira boshladilar, ularning sog‘lig‘i yaxshilandi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshi uzaydi. Lekin insonlar jamoasi kambag‘allik, qashshoqlik va o‘g‘irlik kabi illatlardan butunlay xalos bo‘la olmadi. Bu holat dxammaning mazmun-mohiyatini tushunib yetadigan, uning talablarini amaliyotga tadbiq etadigan hukmdor paydo bo‘lgangacha davom etdi.<sup>15</sup>

<sup>15</sup> Қаранг: Ўша жойда.

Bunday hukmdorning paydo bo‘lishi haqidagi rivoyatlardan birida bir podshohning dxamma ta’limotini o‘zlashtirganligi va amaliyotga tadbiq etilganligi munosabati bilan o‘z merosxo‘ri - o‘g‘liga qilgan pandu-nasihatlarida bayon etilgan. Rivoyatga ko‘ra, podshoh o‘g‘liga dxammani ulug‘lash va hurmat qilishni aytgan. O‘g‘lini dxammaga amal qilgan holda o‘z xalqiga, harbiy qo‘s Shiniga, aslzodalarga, vassallarga, braxmanlarga, katta oilalarning boshliqlariga, shahar va qishloqlarning aholisiga, dinga, turli, jonzodlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, ularni turli tajovvuzlardan muhofaza va himoya qilishni tavsiya qiladi. Shuningdek, podshoh o‘zini uning oldiga yaxshilik va yomonlik nima, jinoyat, yaxshilik va g‘am-alam nimaligini so‘rab kelganlarni albatta eshitish, ularning arz-shikoyatlarining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarish, yomonlikning oldini olish, yaxshilikka zamin yaratishga undaydi.

Taxtni egallagan o‘g‘il otasining ko‘rsatmalari va pandu-nasihatlariga amal qilib davlatni boshqarishni boshlagan va bir kuni o‘z saroyining yuqori ayvonida osmon g‘ildiragini ko‘rib qolgan, g‘ildirak avval sharqqa so‘ngra dunyoning boshqa qismlariga qarab aylangan. Podshoh o‘zining harbiy qo‘sShini bilan g‘ildirakning orqasidan ergashgan, g‘ildirak to‘xtagan joyda podshoh ham to‘xtagan, shunda podshohning dushmanlari uning oldiga kelib undan dxammani o‘rgatishni so‘ragan. Podshoh dushmanlarga dxamma insonlardan odam o‘ldirmaslikni, o‘g‘irlik qilmaslikni, mast qiladigan ichimliklarni iste’mol qilmaslikni talab qilishini tushuntirgan.<sup>16</sup> Bu davlatning qaror topishiga zamin yaratishda muhim turtki bo‘lgan.

Buddaviylik ta’limoti bo‘yicha, davlatni tashkil etishdan maqsad jamiyatda tartib-intizom joriy etish, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, mulki, qadr-qimmati, jinsiy va axloqiy sofligini turli tajovvuzlardan muhofaza qilish, jinoyat sodir etganlarni aybini hisobga olib javobgarlikka tortish, buning uchun davlat boshlig‘i hokimiyatdan foydalanib kuch (zo‘rlik) ishlaishga ruxsat berish kabilardir.

Buddaviylik ta’limotiga binoan, davlat boshlig‘ining hokimiyati cheklanmagan emas, u o‘ziga berilgan hokimiyatdan qanday xohlasa shunday foydalanishiga haqqi yo‘q. U barcha budparastlar kabi dxarmaga og‘ishmay amal qilgan holda o‘z vakolatlarini amalga oshirishi shart.

Davlat boshlig‘i har qanday holatda ham oqibati yomonlikka olib keluvchi xatti-harakatni sodir etishga haqli emas, agar uning bu xatti harakati fuqarolarga boylik va osoyishtalik olib kelsa ham. Bunday xatti-harakati uchun hukmdor shaxsan javob berishi lozim.<sup>17</sup>

Buddaviylik manbalarida davlat boshlig‘ining diniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirishiga alohida e’tibor qaratilgan. Yuksak diniy fazilatlarni o‘zida

<sup>16</sup> Карапг: Ўша жойда. – С. 126-127

<sup>17</sup> Карапг: Цыремпилов Н.В. Государство и бурятская буддийская община Российской империи ХVIII-XIX веков. Дисс.док.ист.наук. Улан-Уда, 2015. –С. 51.

mujassamlashtirmagan davlat boshlig‘i buddaparastlar podshohi bo‘la olmaydi, u o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydi, xalqning ishonchini qozona olmaydi. Bunday podshohning kelajagi yo‘q.

Buddaviylik manbalaridan biri - “Digxa-nikaya”da qayd etilishicha, o‘zining karmasini yaxshilash uchun hukmdor quyidagilarga amal qilmog‘i lozim: dxammaga ishonish; saroy eshiklarini barchaga ochib qo‘yish; kambag‘allar va jahongashtalarning, faqir-miskinlar va tilamchilarning arz-dodini hamda iltimoslarini eshitish, ularga boylik ato etish; tegishli bilimlarga ega, dono, bosiq va adolatli bo‘lish; o‘tmishdagi, o‘z davridagi va kelajakdagi ishlar mazmun-mohiyati va oqibatlarini chuqur, har tomonlama anglab yetish; taqvodorlik va rahim-shafqatlilik qoidalariга amal qilish, Braxma fazilatlarini targ‘ib qilish. Faqat zikr etilgan fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan podshohgina barcha mavjudodlarni, birinchi navbatda o‘z fuqorolarini azob-uqubatdan qutqarishga, ularning farovonligini va baxt-saodatga erishishini ta’minlashga qodir.

Buddaviylik ta’limoti bo‘yicha, podshoh faqatgina hukmdorlik bilan cheklanmaydi, ayni vaqtda u ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda uning ijrosini ta’minlash vositasidir. U eng avvalo adolatli bo‘lmog‘i lozim. Adolatsiz podshoh o‘z xalqiga baxtsizlik olib keladi. Dxammaga va oliy axloqiy qoidalarga amal qilmaydigan podshoh mamlakatni inqirozga olib keladi. Bunday podshoh hokimiyatdan mahrum bo‘lishi, xalq uni hokimiyatdan ag‘darib tashlashi yoki o‘ldirishi mumkin.<sup>18</sup>

Buddaviylik manbalarida davlat boshlig‘i quyidagi ijobiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirishi lozim: sadaqa berishlik, saxiylik, muqaddas qoidalarga sodiqlik, yumshoqlik, adolatlilik, rahmdillik, sabr-toqatlilik, g‘azabdan uzoq bo‘lishlik, rahm-shavqatlilik, his-tuyg‘ularda tiyilishlik, haqoratomuz so‘zlarni ishlatmaslik.

Buddaiylikning boshqa bir manbayi – “Chakkavat – sihanda – sutte”ga ko‘ra, podshox xaqiqatga tayanishi va yolg‘onchilini ta’qib etishi, kambag‘allarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi, zoxid(tarki dunyo qilgan)lar va brahmanlar bilan maslahatlashishi lozim.<sup>19</sup>

Xullas, buddaviylikning davlatning paydo bo‘lishi, uning maqsadi va vazifalari, davlat boshlig‘ining vakolatlari, unga qo‘yiladigan talablar, yuklatiladigan majburiyatlar, podshohning axloqiy fazilatlari, dinga munosabati, buddaviylikka e’tiqod qiluvchi shaxs sifatida vazifalari kabilar diniylik, dunyoviylik, yuksak axloqiy fazilatlar ruhi bilan sug‘orilgan. Buddaviylik ta’limotidagi podshoh, qadimgi davrdagi hind jamiyatida keng tarqalgan “xudo-shoh” haqidagi ta’limotlardan jiddiy farq qiladi. Buddaviylik manbalarida davlat masalalariga yondashuvda diniylikka nisbatan

<sup>18</sup> Қаранг: Корнев В.И. Буддизм и общество в странах южной и юго-восточной Азии. – М.: “Наука”. 1987. – С. 128-129.

<sup>19</sup> Дигха-никая (Собрание длинных поучений) / пер. с пали, статьи, коммент. и прил. А.Я. Сыркина; отв. ред. В.П. Андросов; Ин-т востоковедения РАН. М.: Наука. Вост. лит., 2020. – С. 570-584.

dunyoviy yondashuvning ustunligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buni davlatning paydo bo‘lishi sabablarini xukmdorni insonlar tomonidan saylab qo‘yilganligi haqidagi fikr-mulohazalar, davlat boshlig‘i bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, davlat boshlig‘i va fuqarolarning o‘zaro huquq va majburiyatları, davlat boshlig‘iga qo‘yiladigan talablar,adolatsiz hukmdorga xalqning qarshilik ko‘rsatishi, uni hokimiyatdan ag‘darib tashlashi, hatto o‘ldirishi mumkinligi haqidagi buddaviylik manbalarida ilgari surilgan g‘oyalarda ko‘rish mumkin. Shuningdek, buddaviylik manbalarida davlat boshlig‘i va fuqarolarning yuksak axloqiy fazilatlari, fuqarolarning farovon hayotga va baxt-saodatga erishishlari uchun qanday xatti-harakatlardan tiyilishi, qanday sa’i-harakatlarni qilishi, qanday axloqiy qoidalarga og‘ishmay rioya qilishi lozimligi, boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilarga salbiy munosabatda bo‘lmaslik, ularni ta’qib ostiga olmaslik kabi masalalarga ham alohida e’tibor qaratilgan.

### **Mifalogiya**

Qadimgi Hindiston xalqlari ijtimoiy-siysisiy va huquqiy fikrlarini muhim manbalaridan biri bo‘lgan Rigvedada asosiy e’tibor yuqori badiy obrazlarda o‘z aksini topgan Agin, Indra, Mitra, Varua, Somi, Ushas, Ashvinam, Maristam kabi xudolarning murojati, tabiat olamida yuz beradigan turli voqeа-hodisalarning tafsilotini o‘zida mujassamlashtiruvchi kuchlarni maqtash, ularga ishonish, hurmat-ehtirom bajo keltirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Yuqorida bayon etilganlarga umumiy xulosa yasab shuni alohida ta’kidlash lozimki, umuman buddaviylik ta’limoti, xususan uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan davlat haqidagi ta’limoti murakkab, serqirra, keng qamrovli va ayrim qarama-qarshiliklardan ham holi bo‘lmagan g‘oyalar, fikr-mulohazalar, qarashlar majmuidir. Uning paydo bo‘lishi, g‘oyaviy kurashlar maydoniga chiqishi, keyinchalik ayrim sharq mamlakatlarida davlat dini maqomiga ega bo‘lishi, mazkur din doirasida yo‘nalishlar, sektalar va maktablarning shakllanishi kabilar favqulodda hol emas edi. Buddaviylikning paydo bo‘lishi davr taqozasi bo‘lib hind jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida miloddan avvalgi bir minginchi yillik o‘rtalarida yuz bergen tanazzulning mahsuli edi. Jamiyatning barcha sohalarida ustunlik qilib kelgan varna tizimi taraqqiyotga to‘sinqlik qilib qolgan bir sharoitda buddaviylik ushbu tizimga qarshi kuch sifatida kurash maydoniga chiqdi. Jamiyat a’zolarining varnalarga bo‘linishi, kishilarning huquqiy maqomi qaysi varnaga tegishli ekanligi bilan belgilanishi haqidagi ta’limotga qarshi barcha insonlar tug‘ulishidan tengdir, jamiyat a’zolari erkin kishilar va qullarga bo‘linadi degan g‘oyani ilgari surdi. Eng muximi davlat haqidagi ta’limotlar tarixida birinchilardan bo‘lib buddaviylik davlatning kelib chiqishini turli miflar va g‘ayritabiyy kuchlardan emas yerdan va insonlararo munosabatlardan, kishilarning kundalik ehtiyojidan izlab tushuntirdi, davlatning asosiy maqsadi o‘z fuqarolarining farovonligini va baxt-saodatini ta’minlashdan iborat ekanligiga urg‘u berdi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ularning o‘zlari tomonidan

qabul qilingan qonun-qoidalarga davlat boshlig'i, barcha mansabdorlar va fuqarolar og'ishmay amal qilishi shartligini himoya qilib chiqdi. Buddaviylik ushbu g'oyalari nafaqat o'z davri uchun hozirgi davr uchun ham dolzarb va ahamiyatga molik.<sup>20</sup>

### **Foydalanilgan adabiyorlar va manbalar r o'yxati**

1. Қаранг: Всемирная история в 22-х томах. Т.5. Становление государств Азии. Мн.: Харвест, 2005. – С.369.
2. Qarang: Hasanbayev O'. Diniy-ma'rifiy va ijtimoiy ma'naviy soha targ'ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarining izohli lug'ati.T.: "Shamsuddinxon Boboxonov" nashriyot-matbuot ijodiy uyi. 2020.-B.93-95.
3. Qarang: Po'latova D., Qodirov M., Ahmyedova M. va bosh. SHarq falsafasi. O'quv qo'llanma. T.:TDSHN, 2011. – B.232.
4. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Масъул мухаррир. И.Усмонов. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2013.-Б.148.
5. Қаранг: История политических и правовых ученый. Учебник. Пед.ред. В.С.Нерсесянка. – М.: Норма 2004. – С27.
6. Қаранг: Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-манбаи бирлашмаси, 2013.-Б.148-152.
7. Исоқжонов Р.Р. Қиёсий диншунослик. Ўқув қўлланма. Т.: “Complex Print”, 2020.-Б.167.
8. Ўша жойда
9. Қаранг: Диншунослик. Ўқув қўлланма. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2013.-Б.148-149.
- 10.Низомиддинов Н. Жанубий ва Жануби-Шарқий Осиё Т.: “Фан ва технологиялар Марказининг босмахонаси” 2010.-Б.166-167.
- 11.Низомиддинов Н. Жанубий ва Жануби-Шарқий Осиё Т.: “Фан ва технологиялар Марказининг босмахонаси” 2010.-Б.187.
- 12.Бу ҳақида батафсил қаранг: Корнев В.И. Буддизм и общество в странах южной и юго-восточной Азии. – М.: “Наука”. 1987. – С.123-129.
- 13.Қаранг: Ўша асар, – С. 124-125.
- 14.Қаранг: Ўша асар. – С. 125
- 15.Қаранг: Ўша жойда.
- 16.Қаранг: Ўша жойда. – С. 126-127
- 17.Қаранг: Цыремпилов Н.В. Государство и бурятский буддийская община Российской империи ХВИИИ начала XX В. Дисс.док.ист.наук. Улан-Уда, 2015. –С. 51.
- 18.Қаранг: Корнев В.И. Буддизм и общество в странах южной и юго-восточной Азии. – М.: “Наука”. 1987. – С. 128-129.
- 19.Дигха-никая (Собрание длинных поучений) / пер. с пали, статьи, коммент. и прил. А.Я. Сыркина; отв. ред. В.П. Андросов; Ин-т востоковедения РАН. М.: Наука. Вост. лит., 2020. – С. 570-584.
- 20.Всемирная история. Становление государств Азии Минск: Харвест, 2005. – С. 368.

<sup>20</sup> Всемирная история. Становление государств Азии Минск: Харвест, 2005. – С. 368.